



BIOGRAFIK ASARDA URUSH XOTIRALARINING BADIY TALQINI

Guli Shukurova

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
dots.v.b PhD*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Matyoqub Qo'shjonovning urush xotiralari asosida yaratilgan esse-qissasi badiiy tahlil qilinadi. Unda urush voqyealari munaqqid va snayperchi jangchi nigohi asosida yoritilgani, yozuvchi xotiralarining jonli qiyofasi chizilgani yoritilgan.

Kalit so'zlar: esse-qissa, kompozitsiya, syujet, epizod, poetik nigoh, mahorat, davr ruhi, so'z, ibora, voqyea sharhi, badiiy talqin, ruhiy-psixologik tahlil, poetik mahorat, obrazlilik, xotiranoma.

Аннотация: В статье представлен художественный анализ эссе Матьякуба Кошжанова на основе его военных воспоминаний. Он описывает события войны глазами критика и бойца-снайпера, рисует яркий образ воспоминаний писателя.

Ключевые слова: очерк-рассказ, композиция, сюжет, эпизод, поэтический взгляд, мастерство, дух времени, слово, фраза, рецензия на событие, художественная интерпретация, психолого-психологический анализ, поэтическое мастерство, образность, мемуар.

Abstract: The article presents an artistic analysis of Matyakub Koshzhanov's essay based on his war memories. He describes the events of the war through the eyes of a critic and a sniper, and paints a vivid image of the writer's memories.

Key words: essay-story, composition, plot, episode, poetic view, skill, spirit of the times, word, phrase, review of an event, artistic interpretation, psychological analysis, poetic skill, imagery, memoir.

Yirik adabiyotshunos olim va munaqqid Matyoqub Qo'shjonov ilmiy-ijodiy faoliyatining bir yo'nalishini xotiralar, memuarlar, kichik-kichik ilmiy-adabiy portretlar tashkil etadi. Bu asarlar olimning ijodkorlik salohiyatidan, adiblik mahoratidan dalolat beradi. 1990 yilda chop etilgan "Tepki bosildi" nomli esse-qissasi ana shunday ijodiy namunalardan biridir. Keyinchalik adibning "Alam" nomli memuar romani uchun asos vazifasini o'tovchi bu asar muqaddimadan tashqari ikki bo'limdan tashkil topgan. O'n bobdan iborat birinchi bo'lim "Snayper jangnomasi" deb nomlansa, ikkinchi bo'lim "Diydor" deb atalgan.

Kompozitsiya va syujeti o'ziga xos shaklda namoyon bo'lgan birinchi bo'lim adibning asosan ikkinchi jahon urushiga oid esdaliklaridan tashkil topgan. Yozuvchi asarda o'zi bevosita ishtirokchisi bo'lgan yoki kuzatgan voqyealarni har bir bobda alohida-alohida jang manzaralari sifatida tasvirlaydi. Bu jang epizodlari yoki voqyealar





tizimi asarda ma'lum bir tartib bilan, ketma-ketlikka asoslangan holda, mantiqan bir-biriga aloqador tarzda tasvirlanadiki, garchi har bir bob alohida jang epizodlari sifatida voqe bo'lsa-da, biroq yaxlit syujet liniyasi va kompozitsion butunlikni hosil qilgan.

Ushbu esse-qissada yozuvchining o'tkir poetik nigohi yaqqol sezilib turadi. Asarning dastlabki "Ilk jang saboqlari" nomli bobida jangoldi ma'lum tayyorgarlikdan so'ng hamqishloq do'sti Nafas bilan birga frontga borishdagi safar xotiralari bayon etiladi. Kitobxon yozuvchi nigohi orqali yo'l-yo'lakay og'ir janglardan darak beruvchi vayronagarchiliklarni, hali urush ko'rmagan askarlarning osmonda uchburchak yasab uchayotgan dushman samolyotlaridan yashirinib, o'zini har yoqqa urib bekinishlari, atrof yonda bot-bot portlayotgan snaryadlar dahshatidan esankirashlari, xullas, odatdagidek jang manzaralari bilan tanishib, kitob ruhiga kirib boradi. Ilk jangga kirgan tajribasiz jangchiga xos bo'lgan xavotir va ruhiy holatlar yozuvchi tomonidan mohirlik bilan tasvirlangan. Ularning Sinyavino botqoqligidagi bir kishilik okopda o'q yomg'iri va snaryadlar portlashi ostidagi bir kechalik ruhiy holati asarda mohirlik bilan tasvirlanadi. Kitobda urush mavzusida yozilgan roman yoki qissalardagidek badiiylashgan lavhalar, to'qima epizodlar uchramaydi. Asar xotiralarga asoslangani bois qisqa-qisqa jang tafsilotlari yoki ruhiy kechinma, o'y-xayollar, asosan, esse janriga xos bo'lgan badiiy-publitsistik ifodalar vositasida aks ettiriladi. Muallifning eslatishicha, bu xotiralarining ba'zi birlari hozir ham saqlanib qolgan. Bundan tashqari jang xotiralarini yaratishda polkdosh do'sti Ahmadjon Azizov ham yaqindan yordam bergan. Va nihoyat bularning barchasidan ham muhim omil – adibning yozuvchilik salohiyati, o'tkir poetik nigohli iste'dodi bilan belgilanadi.

Asarni o'qir ekanmiz, eng avvalo yoshlikdan birga o'sgan do'sti Nafas bilan dastlabki janglardagi ishtirokini, yaralanib bir necha kun davolanib, jangga qaytgandan keyin boshqa polkda xizmat qilishi-yu u yerda orttirgan xizmatdosh do'stlari haqida, shuningdek ayrim quoldosh-jangchilar va ularning siymolari haqida tasavvurga ega bo'lamiz. Yozuvchi jangning shafqatsizligini xarakterli epizodlarda, jonli lavhalarda yorqin tasvirlab bera olgan. Jumladan, dastlabki jang epizodlarida tasvirlangan aloqachi Vasya taqdiri ana shunday fojiaiy qismlardan biridir. Tinimsiz o'q yomg'iri ostida hali u okopdan bu okopga emaklab, jangchilarga turli ma'lumotlarni, oziq-ovqatlarni tashib yetkazayotgan jasur Vasya o'zining dovyurakligi va chaqqonligi bilan bir kundayoq barcha askarlarning mehrini qozonib ulguradi. Asarda Vasya fojiasi quyidagicha tasvirlanadi: "Emaklab, tuproq uyumiga chiqqan ham ediki, qarsillagan,





bir narsa unga urildi-da, u tuproqni quchoqlaganicha jim qoldi. Chakkasidan sizib oqayotgan qon yuzini bo'yab, tuproqqa singiy boshladi.

– Snayper otdi, – dedi do'stim Nafas.” [1. 116-b.]

Ushbu tasvirlar yozuvchining mahorati tufayli o'quvchiga ham qadrdon bo'lib qolgan Vasyaning o'limi garchi tafsilotlarsiz, ortiqcha bo'yoqlarsiz tasvirlangan bo'lsa-da, ularning ham qalbini larzaga soladi.

Munaqqid O'rol O'taevning “Tanqid va uslub” kitobida Matyoqub Qo'shjonovning snayperlik faoliyati haqida quyidagilarni o'qiymiz: “Xullas, mergan Matyoqub Qo'shjonov shu tariqa Vichego shahri uchun bo'lgan janglarning o'zida 63 ta nemis ofitserini gumdon qildi.

Shu xizmatlari evaziga mergan Matyoqub Qo'shjonov “II darajali Ulug' Vatan urushi” ordeni hamda “Jangovor xizmatlari uchun” medali bilan taqdirlandi.” [2. 116-b.] Axborot tariqasida yozilgan ushbu ko'chirmadagi dushmanning 63 ta snayperini yo'q qildi, degan ma'lumot bir qarashda Matyoqub Qo'shjonovning snayperlik mahorati va dushmanga nisbatan qahr-g'azabini ifodalayotganday tuyulsa ham, lekin psixologik tahlillarsiz, quruq sanoq shaklida bayon etilayotgani uchun ehtimol kitobxonda boshqacharoq taassurot uyg'otishi mumkin. Lekin yozuvchining xotiralarida aks etgan dushman bilan “duel”lari jarayonidagi ruhiy-psixologik holatlar, nishonni yo'q qilish uchun tinimsiz kuzatishlar-u poylashlaridan tashqari muallifning dil iqornomalari yuqoridagi keltirilgan sanoqning har bir ijrosida juda katta ruhiy bosim va iztiroblar borligidan dalolat beradi. Matyoqub Qo'shjonov kitobning bir o'rnida shu haqda mulohaza yuritib, bir ikki marta demasa, hatto tovuq so'yishga ham qo'li bormasligini, kattaroq hayvonlarni, masalan, qo'ylarni so'yayotganda hatto yaqiniga ham yo'lamasligini yozadi. Shu nuqtai nazardan ovchilik bu bir o'ziga xos san'at va kasb ekanligini, parandalar yoki jonivorlarni otayotganda ov ovlash ishtiyoqi yetakchilik qilishi ta'kidlanadi. Lekin mergan sifatida o'ziga o'xshagan insonni ovlash, uni otib o'ldirish - bu kuchli ruhiy bosim asosida ro'y beradigan hodisa ekanligini unutmazlik zarurligi bayon etiladi. “Bugun men odam o'ldirdim, oddiy jonivor emas, o'ldirilganda ham ko'ra bila turib, ustiga-ustak uni necha kunlar izlab, bekingan joyidan topib o'ldirdim. Ha, odam o'ldirdim!”[1. 80-b.]

Muallif dushman snayperini mo'ljalga olgan paytdagi ruhiy kechinma-yu ikkilanishlarini asarda quyidagicha bayon etadi: “... To'g'risini aytsam, o'zimda





ozgina bo'lsa ham rahm hissi uyg'ongan edi. O'y lab turib hamma aybni hali bu kasb-koringa o'rganib ketmaganimga yukladim.

Yozuvchi o'zining snayper bo'lish ahdini izohlar ekan buni eng avvalo, urushda ko'rgan, kechirgan dahshatlari, vayronagarchiliklar, safdoshlarining birin-ketin dushman o'qidan halok bo'lishlari va nihoyat vatanparvarlik tuyg'ulari bilan bog'lab talqin etadi. Bu masalaning bitta jihati, ikkinchisi esa o'zidagi merganlik salohiyatini takomillashtirish, yuqori bosqichga olib chiqish va yakkama-yakka duelda g'olib chiqish masalasi.

Xotirani o'qir ekanmiz, munaqqidning urushda dushman bilan yakkama-yakka olib borilgan duellarida orttirgan hayotiy tajribasi bilan badiiy asarni baholashdagi, talqin etishdagi sinchiligi o'rtasida muayyan bog'liqlik borligini ko'rishimiz mumkin. Buni "Tepki bosildi..." nomli asaridagi tasvirlarning o'ziga xosligida ham ko'rish mumkin. Chunonchi asarda tasvirlangan do'sti va hamqishlog'i Nafas, aloqachi Vasya yoki merganlikdagi ustoz Aleksiy Kochegarov yoki bo'lmasa hamkasbi Fomen, jangda xalok bo'lgan Sibirlik Muxtor aka kabilarning qismati yoki xarakter-xususiyatlarini ochishdagi detallashtirish, tizimli tasvirdan mohirona foydalanish shu orqali kitobxonda ular haqida jonli tasavvur hosil qilish bilan bir qatorda masala mohiyatini anglatishga erishish, bularning barchasining orqa fonida namoyon bo'layotgan muallifning o'tkir sinchkov nigohi, xarakter yoki manzaralar yaratishdagi sabr-toqati yaqqol sezilib turadi. Asarni yozuvchi garchi "Tepki bosildi..." deb nomlagan va dushman bilan olib borilgan jangga bag'ishlagan bo'lsa ham lekin biz asarda shu mavzuda bitilgan badiiy kitoblardagidek nuqul jang epizodlarining bayonini ko'ravermaymiz. Kitob muallifi ba'zi o'rinlarda jang manzaralari tasvirini chizsa, boshqa o'rinlarda urush davriga aloqador, lekin bevosita jang epizodlariga bag'ishlanmagan ko'plab voqyealarga ham o'rin beradi. Asarda tasvirlangan har bir epizod, har bir voqyea kitobxonni befarq qoldirmaydi. Chunonchi asarning "Jangchining bir kunlik istirohati" nomli uchinchi bobidagi voqyealar, ya'ni mashg'ulotlardan keyin urushning qaynoq nuqtasidan orqaroqda, daryo etagidagi bir kunlik hordiq, jangchilarning tabiat qo'ynidagi bahoriy manzaralardan zavqlanishi, kiyimlarini yuvib-tarab gimnastyorkasi yoqalariga oq yoqaliklar tikishlari, snayperlar tarkibidagi Valya va Lyusya kabi qizlarga bo'lgan munosabatlari yozuvchi tomonidan individual chizg'ilarigacha batafsil ta'riflanishi, ularning bolalikdagi sinfdosh qizlariga o'xshatishi va shu orqali o'quvchilik paytidagi qizlarga bo'lgan





munosabati, maktabdan qaytishda ularga o'qigan dostonlarini hikoya qilib berishi kabi xotiralar bir qarashda urush davriga xos bo'lmagan epizodlardek tuyuladi. Ammo xotira muallifining urush qatnashchisi ekanligini, ushbu epizodlar uning ishtirokida bo'lib o'tganligini hisobga oladigan bo'lsak, urush ayrim bevosita urushda ishtirok etmagan yozuvchilarning asarlarida tasvirlanganidek nuqul paq-paq otishlari, gumbur-gumbur portlashlardangina iborat emasligini, balki, mana shunday og'ir janglar jarayonida ham kundalik hayot davom etishini, jangchilarning yuvini-bitaranib o'ziga oro berib, dam olishlari ham mumkinligini ko'rsatadi. Yozuvchining asari jang vaqti bilan jangdan tashqaridagi hayotni bir-biriga omuxta qilib tasvirlashi bilan boshqa shu tipdagi asarlardan farq qiladi. Ayni paytda asarda jang manzaralari fojealari ham o'zining realistik ifodasiga ega va kitobxonlarda muayyan munosabat hosil qiladi.

Yozuvchining mahorati shundaki, asarda jang epizodlardan tashqari jangchining kundalik hayotida turli millat jangchilari o'rtasida uchraydigan so'z, iboralar, ayrim voqyea-hodisalarning sharhlari tasviri orqali ham davr ruhini kitobxonga yuqtira olgan. Masalan, o'z safdoshi Fomen muallifning ismini Matyoqub deb hyech talaffuz qila olmaydi va har doim unga ota-onang nega bunday ism quygan ekan-a, deb ajablanadi. Yozuvchi ushbu voqyeani quyidagicha xotirlaydi.

“Mening otimni u ikkiga bo'lar, biri “Mat” ikkinchisi “Yoqub”.

- “Yoqub” tushunarli, o'zimizning “Yakov”ning o'zi biroq “Mat”i nimasi, ota-onangga ham hayronman “Yakov” deb qo'ya qolmaydimi, - der edi u.

Gapini davom ettirib: “Mat”i Mixailga to'g'ri keladi. “Men seni shunchaki Mixail Yakoblievich deb atayman” der edi u.” [1. 39-b.]

Bu atov muallifga yoqqani uchun keyinchalik, talabalik yillarida ham o'zini “Mixail Yakoblevich” deb tanishtirib yurganini xotirlaydi. Yoki dushmanning bir minomyotining shovqiniga qarab “eshak” deb atashlari, amaliga ko'ra kekkaygan polk kotibini jangchilar “kalamush” deb nom qo'yib olishlari, bularning barchasi asarda davr ruhini berishi bilan bir qatorda asarning o'qimishligini, obrazliligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Matyoqub Qo'shjonovning ushbu asari esse janrida yozilgan xotiranomalaridan biri bo'lib, adibning ijodkorlik iqtidorini to'la namoyon qilishi bilan bir qatorda, uning o'ziga xos bo'lgan ijodiy uslubini belgilashga ham xizmat qiladi.





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қўшжонов М. Тепки босилди.. – Т.: 1990, - Б.16.
2. Ўтаев У. Танқид ва услуб. – Т.: Ғ.Ғулом нашриёти, 1979. – Б. 106.
3. Қўшжонов М. Дийдор. Улуғлар билан ўтган онларим. – Т.: Шарқ, 2004. – 336 б.
4. Стоун И. Биографик қисса ҳақида // Жаҳон адабиёти. –Т.: 2000. №8.
5. Мели С. Хотиранивис / Матёқуб Қўшжонов. Танланган асарлар. – Т.: Шарқ, 2018. –10-16 бб.
6. https://uza.uz/uz/posts/matyoqub-qoshzhonov-xotira_264072
7. Буранова, Б. (2023). ОТРАЖЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКОЙ ПРАВДЫ В ТРАГИЧЕСКОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ НА ОСНОВЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ КРИТЕРИЕВ. In АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ (pp. 82-83).
8. Буранова, Б. (2023). УСТАРЕВШИЕ СЛОВА В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПЕРЕВОДЕ-СРЕДСТВО ОТРАЖЕНИЯ КОЛОРИТА ИСТОРИЧЕСКОГО ПЕРИОДА (НА ПРИМЕРЕ ТУРКМЕНСКОГО ПЕРЕВОДА РОМАНА “ЗВЕЗДНЫЕ НОЧИ”). In АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННЫХ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ (pp. 145-147).
9. Shukurova, G. SCIENTIFIC HERITAGE AND STYLISTIC ORIGINALITY OF THE CRITIC. heart, 1, 201.
10. ТАШМУХАМЕДОВА, Л. И. (2019). PRINCIPLES OF TEXT WRITING BASED ABLULLA KADIRIY'S SCIENTIFIC INTERPRETATION. Иностранные языки в Узбекистане, (1), 81-86.
11. Мирзаева, Н. (2023). REWRITING-МАТНЛАРНИ САМАРАЛИ ҚАЙТА ИШЛАШ ВА ЯРАТИШ УСУЛИ СИФАТИДА. Interpretation and researches, 1(15).
12. Мирзаева, Н. А. (2023). ДЕТСКАЯ ПРЕССА КАК ВИД СПЕЦИАЛИЗИРОВАННОЙ ЖУРНАЛИСТИКИ. In MODERN SCIENTIFIC RESEARCH (pp. 66-68).
13. Мирзаева, Н. А. (2022). ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННОЙ ЖУРНАЛИСТИКИ. In Актуальные проблемы медиапространства: от теоретических аспектов до практической реализации (pp. 284-289).
14. Yakubova, F. (2023). PEDAGOGICAL ASPECTS OF DEVELOPING OF CROSS-CULTURAL COMPETENCE OF STUDENTS IN INNOVATIVE EDUCATION APPROACH. Science and innovation, 2(B2), 669-679.

